



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol.4 Issue 06 | pp.95-101 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

DAVLAT FUQOROLIK XIZMATIGA KADRLARNI SARALAB OLISHNING HUQUQIY ASOSLARI



Isroilov Islomiddin Kamoliddin O'g'li

Zomin tumani hokimligi raqamli iqtisodiyotni loyihalashtirish menejeri

E-mail: islomiddinisroilov7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat fuqorolik xizmatiga kadrlarni saralab olishning huquqiy asoslari hamda O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosatini va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirishga oid me'yoriy hujjatlar faoliyati haqida fikrlar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: davlat fuqorolik xizmati, davlat organlari, qonuniylik, kadrlar tanlovi, adolatlilik, tizim, lavozim, qonun.

Kirish

Ma'limki, O'zbekiston yangi taraqqiyot bosqichiga o'tar ekan, jamiyatimizning barcha jabhalari samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohatlar davri boshlanganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, davlat xizmati faoliyatini olishimiz mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-sonli Farmoni¹ hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4472-sonli Qarorining qabul qilinishi davlat fuqarolik xizmatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab berdi².

Shu asoslardan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosatini va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirishga oid birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturida O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni loyihasini xorijiy ekspertlarning tavsiyalari va keng jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda takomillashtirish orqali O'zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatining asosiy tushunchalari, reglamentlari va kafolatlarini qonun bilan mustahkamlash vazifasi turardi. Shu asosda O'zbekiston Respublikasining «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi Qonuni loyihasi ishlab chiqildi va jamoatchilik

¹ O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-5843-son 03.10.2019 <http://lex.uz/docs/4549998>

² [davlat-fuqarolik-xizmati-davlat-xizmatining-bir-turi-sifatida.html](https://zamin.uz/uz/jamiyat/75346). <https://zamin.uz/uz/jamiyat/75346>

muhokamasiga qo'yildi hamda shu bosqichlardan so'ng 2022 yilning 8 avgustida qabul qilindi.

Hammamizga ma'lumki, uzoq yillardan beri "Davlat xizmati to'g'risida"gi qonunni qabul qilish dolzarb masala bo'lib kelayotgan edi. Davlat xizmatining umumiy jihatlarini, asoslarini, uning turlarini, tashkiliy-huquqiy mexanizmini, uni o'tash tartibini, shuningdek davlat xizmatchisining huquqiy maqomini belgilab beruvchi yagona qonunning yo'qligi ko'p muammolar keltirib chiqarayotgan edi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xar qanday jamiyatning rivojlanishida shuningdek jadal taraqqiy etishida o'sha davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatining yaxshiligi davlat tomonidan fuqorolar uchun tashkil etilgan xizmatlar alohida o'rin egallaydi. Davlatning taraqqiy etishi eng, avvalo davlat xizmatini to'g'ri tashkil etishga, bog'liqdir, deb ta'kidlaydi TDYUU Davlat huquqi va boshqaruvi kafedrasining katta o'qituvchisi F.B.Isayev. Davlat organlarining samarali faoliyat olib borishi ko'p jihatdan bu qonunning qabul qilinishini taqozo etadi.

Huquqshunos olim Ye.V.Oxotskiy aytganidek, "Davlat xizmatchilari, ularning intilishi va qiziqishlari qanday bo'lsa, davlat ham shunday taraqqiy etadi"³. Shu sababidan ham mazkur qonunda jamiyatimiz va davlatimizni davlat xizmati sohasida tartibga solinish kerak bo'lgan, anchadan beri bir tizimga tushmagan masalalar atroflicha tartibga solindi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu qonunda davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari belgilanib, jumladan:

- davlat fuqarolik xizmati tizimining yagonaligi va barqarorligi;
- qonuniylik;
- adolatlilik;
- xalqqa xizmat qilish;
- davlat organlarining va mansabdor shaxslarning jamiyat hamda fuqarolar oldida mas'ulligi;
- inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;
- xolislik, professionallik va kompetentlik;
- davlat fuqarolik xizmatiga kirishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning teng huquqliligi;

-davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi⁴ kafolatlanib qo'yildi.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasida 1995 yil 5 iyulda «Rossiya Federatsiyasida davlat xizmatining asoslari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilingan. Ushbu qonunning 2-moddasida, davlat xizmati – davlat organlari vakolatlarini ta'minlash bo'yicha olib boriladigan professional faoliyat sifatida ta'riflangan.

Rossiya Federatsiyasining «Rossiya Federatsiyasida davlat xizmatining asoslari to'g'risida»gi Qonuniga asosan Davlat xizmati tizimini :

- davlat fuqarolik xizmati,

³ [davlat-fuqarolik-xizmati-davlat-xizmatining-bir-turi-sifatida.html](https://zamin.uz/uz/jamiyat/75346). <https://zamin.uz/uz/jamiyat/75346>

⁴ Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida.O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2022 y. <https://lex.uz/uz/docs/-6145972>

- harbiy xizmat,
- huquqni muhofaza qilish organlarida amalga oshiriladigan xizmat tashkil etadi⁵.

Shuningdek, Belarus Respublikasining 2003 yil 14 iyunda qabul qilingan «Belarus Respublikasida davlat xizmati to'g'risida»gi Qonunning 2-moddasiga binoan, davlat xizmati deganda davlat mansabini egallab turgan holda davlat-hokimiyat vakolatlarini bevosita amalga oshirishga va (yoki) davlat organlari funksiyalari bajarilishini ta'minlashga qaratilgan professional faoliyat tushuniladi⁶.

Qozog'iston Respublikasining 1999 yil 23 iyulda qabul qilingan «Davlat xizmati to'g'risida»gi Qonunining 1-moddasida davlat xizmati – davlat hokimiyatining vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishga qaratilgan mansab vakolatlarini bajarish bo'yicha davlat organlaridagi davlat xizmatchilarining faoliyatidir.

Qirg'iziston Respublikasining 2004 yil 11 avgustda qabul qilingan “Davlat xizmati to'g'risida”gi Qonuniga binoan, davlat xizmati – davlat xizmatchilarining davlat organlarida professional asosda amalga oshiriladigan hamda Konstitutsiya va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilab berilgan hokimiyat vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini bajarishga qaratilgan faoliyatdir⁷.

Ushbu xorijiy davlatlar qonun hujjatlari mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak, ayrim davlatlarning qonunchiligi davlat xizmatini aynan davlat organida ma'lum bir mansabni egallab turgan shaxs tomonidan davlat (davlat organlari) vazifa va funktsiyalarini amalga oshirishga qaratilgan professional faoliyat sifatida belgilab berganligini ko'rishimiz mumkin.

Yurtimizda qabul qilingan “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi” qonun mohiyatidan kelib chiqsak Davlat fuqarolik xizmati Davlat xizmatining bir sohasi bo'lib, Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestriga kiritilgan lavozimlardagi davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etiladi.

Ma'lumki ushbu Qonunning maqsadi davlat fuqarolik xizmati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat⁸.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, Davlat fuqarolik xizmati va Davlat xizmati tushunchalari bir tushuncha emas, balki Davlat fuqarolik xizmati Davlat xizmati tushunchasining ichiga kiruvchi, Davlat xizmati munosabatlari tizimida o'z o'rniga ega bo'lgan xizmat turidir.

Shu kungacha yurtimizda Davlat fuqarolik xizmati munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy asos yo'q edi. Hamda ushbu doiradagi barcha munosabatlar qonunchilikdagi yaqinroq me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinardi. “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi” qonunning imzolanishi mavjud muammolarni hal etib, tizimning to'liq isloh etilishiga asos bo'lyapti.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning metodologik asosisini davlat xizmati o'quv fanining fundamental nazariyalari, davlat xizmatining to'laqonli funksiyalari uning o'ziga xos xususiyatlari,

⁵ Xojiev E.T, Ismailova G.S, Raximova M.A. Davlat xizmati. -T.: 2015. –B.10

⁶ Shu manba

⁷ Shu manba

⁸ Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2022 y. <https://lex.uz/uz/docs/-6145972>

uning amaliyotga tadbqiq etish konsepsiyalari, davlat xizmatlarini amalga oshirishga doir tadqiqot ishlarini olib borgan xorij va O'zbekistonlik olimlar, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning ma'ruza va nutqlari tashkil qiladi. Mazkur tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, institutsional tahlil, kontent, funksional tahlil, qiyosiy tahlil, analiz va sintez kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, maxalliy davlat hokimiyati organlari va barcha idoralarda davlat xizmatlarini samarali tarzda tashkil etish hamda davlat fuqorolik xizmatiga malakali yetuk kadrlarni saralab olish va bu borada xorijiy texnologiyalardan samarali foydalanish, bundan tashqari kadrlarni saralab olishda ularning bilimi, salohiyati, va xorijiy tillarni bilish darajasiga qarab turli xil soha faoliyatlariga bevosita yo'naltirish, shuningdek davlat organlari faoliyatini takomillashtirish, mazkur tizim haqida aholining barcha qatlamida yuqori darajada tushuncha hosil qilish, moddiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha aniq mezon va tartiblarni joriy etishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqishda qo'llaniladi

Tahlil va natijalar

O'rganilgan tahlillar natijasida shuni aytib o'tishimiz joizki, davlat fuqarolik xizmatini tashkil etish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olib, mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatidan qo'yidagilar belgilab berilgan:

birinchidan, mamlakatda davlat fuqarolik xizmatini tartibga soladigan huquqiy bazani takomillashtirish;

ikkinchidan, zamonaviy kadrlar tayyorlash texnologiyalarini inobatga olib, davlat xizmati tizimiga kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

uchinchidan, davlat xizmatini rivojlantirishning «mansab modeli» va «lavojim modeli» negizida davlat xizmatining milliy konsepsiyasini ishlab chiqish;

to'rtinchidan, davlat fuqarolik xizmatchilarini uzluksiz rivojlantirish (harakatlanish) tizimini tashkil etish;

beshinchidan, davlat fuqarolik xizmatida korrupsiyaning yuzaga kelish xavfi va mansab suiiste'molchiligini kamaytirish imkonini beradigan davlat xizmatchilari mehnatiga haq to'lash va ijtimoiy ta'minotining zamonaviy tizimini yaratish;

oltinchidan, davlat fuqarolik xizmatchilari mehnatini tartibga soluvchi normalarni soddalashtirish;

yettinchidan, mamlakatimizda mavjud kadrlarning yagona ma'lumotlar bazasini yaratish, kadrlar harakatlanishini monitoring qilib boorish lozimligi ilgari surilgan.

O'zbekistonda davlat xizmatining amaldagi tizimi XX acp 90-yillarining boshida ittifoq tipidagi totalitar davlat tizimi o'rnida demokratik respublika tashkil topganidan so'ng yuzaga keldi. 1992 yilgi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, yangi qonunlar, O'zbekiston Prezidenti farmonlari, Hukumat qarorlarining qarorlarining qabul qilinishi natijasida ko'rib chiqilayotgan hukukiy institutga muayyan o'zgartirishlar kiritildi, davlat xizmati faoliyatining bir kancha yangi qoidalari mustahkamlab qo'yildi.

Darhaqiqat, hozirgi paytda «faqat zamon bilan teng qadam tashlayotgan, tez o'zgarayotgan dunyoning qat'iy shart va talablariga javob berishga intilayotgan mamlakatning kelajagi yorug' bo'lishi mumkin» shu jihatdan olib qaraganda, suveren

davlatimizning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishi va taraqqiyotga yo'naltirilgan qarorlarning hayotga tatbiq etilishi, avvalambor, bu ishlarni amalga oshirish vazifasi zimmasiga yuklatilgan organlar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va oddiy xodimlarning o'z vazifa va majburiyatlariga vijdonan, mas'uliyat bilan yondashishlariga bog'liqdir. Shu munosabat bilan taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida mas'uliyat masalasi yanada dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etishda bevosita aholi ehtiyojlarini qondirish bilan bog'lik faoliyat olib boradigan turli idora va tashkilotlarning rahbarlari zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklanganligi aslo bejiz emas.

"Davlat xizmati" ma'lum bir davlat hududida o'sha davlatning tinchligi, xavfsizligi, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa har taraqqiyotiga qaratilgan davlat ahamiyatidagi faoliyat tomonlama dasturlari va rejalarini ishlab chiquvchi, ularni amalga oshiruvchi, amalga oshirilishini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi tizimdir.

"Davlat xizmati kadrlari" ma'lum bir davlat hududida o'sha davlatning tinchligi, xavfsizligi, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa har tomonlama taraqqiyotiga qaratilgan davlat ahamiyatidagi faoliyat dasturlari va rejalarini ishlab chiquvchi, ularni amalga oshiruvchi, amalga oshirilishini nazorat qiluvchi va boshqaruv uchun mas'ul shaxslardir. Ammo shuni alohida qayd etish joizki, qonunchilik davlat xizmatining barcha turlarini tashkil etish va ularning faoliyati muammolarini to'liq hal qila olgani yo'q. Ko'pgina normativ-huquqiy hujjatlar zamon talablariga javob bermaydi, chunki davlat xizmatining mohiyatini, uning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradigan O'zbekiston Respublikasining «Davlat xizmati va davlat xizmatchilari to'g'risida»gi Qonuni hanuz qabul qilingani yo'q. Shuning uchun ham iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan vaziyat butun davlat xizmati tizimini isloh etish muammosini dolzarb qilib qo'ymoqda. Chunki, davlat xizmati muammosi — bu davlat munosabatlarini amalga oshirish, kuchli va layoqatli hokimiyat muammosidir.

Bu muammo ancha murakkab hisoblanadi. Buning sababi shundaki, mustabid sho'ro hokimiyati davrida, ya'ni u o'rnatilgan 1917 yildan to sobiq ittifoq parchalangunga qadar, davlat xizmatchilari to'g'risida bironta ham qonun qabul qilinmagan.⁹ Bu, albatta, nomatlub, g'ayritabiiy hodisa bo'lib, har qanday rivojlangan davlat o'z davlat mexanizmini davlat xizmatchilari to'g'risidagi qonun asosida qurishi lozim. Buning aksi bo'lishi mumkin emas: barcha zamonlarda kadrlar davlat mexanizmining muhim, jonli elementini tashkil etgan.

Shu o'rinda muhokama qilinayotgan tushunchani ta'riflashga nisbatan yondashuvga yana bir misol keltiramiz: «Davlat xizmati apparatining amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan tashkiliy-tarkibiy tuzilishi va mazkur apparat xodimlarining (davlat xizmatchilarining) jamiyat ehtiyojlarini qondirish, shaxs xuquqlari va manfaatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida davlat boshqaruvi vazifalarini bajarish borasidagi faoliyatidir»¹⁰

⁹ Комаровский В.С., Тимофеева Л.Н. Конфликты граждан с чиновниками: почему и зачем? // Государство и право. – М., 1997. - № 10. - С.238

¹⁰ Буравлев Ю.М. Проблемы реформирования и управления системой государственной службы в России // Государство и право. М., 2012. - № 7. - С.36

Mamlakatimizda davlat xizmati sohasida yagona davlat siyosatini huquqiy ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi davlat xizmatini tartibga soladigan unifikatsiyalashgan qonun qabul qilish zarurati asoslantirildi. Qonun davlat xizmatidagi barcha munosabatlarni kompleks qamrab oladigan huquqiy normalardan tashkil topishi kerakligi ta'kidlandi.

Xulosa va takliflar

Xulosamiz o'rnida quyidagilarni ma'lum qilamiz:

Birinchidan davlat fuqorolik xizmatiga kadrlarni saralab olishda avvalo ularning bilim va malakalariga, kasbiy salohiyatiga muomila-madaniyatiga e'tibor qaratish lozim.

Ikkinchi davlat fuqorolik xizmatida faoliyat olib borayotgan kadrlarning faoliyat samaradorligini baholash zarur; yani bunda davlat fuqorolik xizmatchisini rag'batlantirish hamda xolisona va adolatli mezonlar asosida lavozim bo'yicha ko'tarilishini ta'minlash uchun uning faoliyati samaradorligini eng muhim ko'rsatkichlar asosida baholash,

Uchunchi xizmat bo'yicha ko'tarilishni yo'lga qo'yish, bunda davlat fuqorolik xizmatchisining o'z kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirib borishi hisobiga xizmat faoliyatining natijadorligi asosida yuqoriroq lavozimga tayinlash yoki yuqoriroq malaka darajasini berish.

To'rtinchi rotatsiya – shaxsiy va kasbga oid sifatlarni rivojlantirish, faoliyat samaradorligini oshirish, rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish uchun egallab turgan lavozimga teng bo'lgan boshqa lavozimga o'z roziligi bilan o'tkazish.

Beshinchi kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirish – davlat fuqorolik xizmatchisining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni egallash maqsadida qayta tayyorlash, malaka oshirish va mustaqil ta'lim olish.

Oltinchi mehnatga haq to'lash – bazaviy lavozim maoshi, ko'p yillik xizmat uchun qo'shimcha to'lov, malaka darajasi uchun qo'shimcha to'lov, eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlariga erishganlik uchun qo'shimcha ustama, hisobot davri yakunlari bo'yicha rag'batlantirish to'lovlari.

Yettinchi rag'batlantirish choralari – lavozim maoshiga qo'shimcha ustamalar, pul mukofoti, navbatdan tashqari malaka darajasini berish, minnatdorchilik e'lon qilish, qimmatbaho sovg'a, esdalik yoki ko'krak nishoni yoxud yorliq bilan mukofotlash.

Sakkizinchi intizomiy jazo – lavozim yo'riqnomasiga va odob-axloq qoidalariga, qonunda belgilangan cheklovlarga rioya etmaganlik intizomiy jazo choralari qo'llash uchun asos bo'ladi. Intizomiy jazo choralari quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: hayfsan, o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima, malaka darajasini pasaytirish, lavozimini pasaytirish, egallab turgan lavozimidan ozod qilish.

Yuqorida keltirib o'tilgan tamoyillar o'z navbatida davlat fuqorolik xizmatiga malakali kadrlarni saralab olish va kelgusida ularning faoliyat doirasini amalga oshirishda poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-5843-son 03.10.2019
<http://lex.uz/docs/4549998>
2. [davlat-fuqarolik-xizmati-davlat-xizmatining-bir-turi-sifatida.html](https://zamin.uz/uz/jamiyat/75346).
<https://zamin.uz/uz/jamiyat/75346>
3. [davlat-fuqarolik-xizmati-davlat-xizmatining-bir-turi-sifatida.html](https://zamin.uz/uz/jamiyat/75346).
<https://zamin.uz/uz/jamiyat/75346>
4. Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2022 y. <https://lex.uz/uz/docs/-6145972>
5. Xojiev E.T, Ismailova G.S, Raximova M.A. Davlat xizmati. -T.: 2015. –B.10
6. Shu manba
7. Shu manba
8. Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2022 y. <https://lex.uz/uz/docs/-6145972>
9. <https://akkred.uz/news>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

